

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Qarori

Investitsiya loyihalarining loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqish sifatini oshirish to‘g‘risida

Loyiha oldi hujjatlarini sifatli ishlab chiqish natijalari uchun buyurtmachilarning mansabdor shaxslari — loyihalarning tashabbuskorlari va loyihalash tashkilotlarining mas’uliyatini oshirish yo‘li bilan investitsiya loyihalarini ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirish uchun qulay sharoitlarni yaratish, ularni amalga oshira boshlash uchun tayyorgarlik ishlarini tezlashtirish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida loyiha oldi hujjatlarini tayyorlash sifatiga putur yetkazmasdan ularni ekspertizadan o‘tkazish tartibini soddalashtirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yangidan quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspertizadan o‘tkazib baholash agentligi tugatilsin.
2. Yangidan quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspertizadan o‘tkazib baholash agentligini (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) Tugatish komissiyasi tarkibi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Tugatish komissiyasi (A.J. Ramatov) Agentlikni tugatish bilan bog‘liq bo‘lgan chora-tadbirlar kompleksining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta‘minlasin.

3. Buyurtmachi sifatida investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan loyiha tashabbuskorlari — soha vazirliklari, idoralari, xo‘jalik birlashmalari va tashkilotlari ikki hafta muddatda:

tarmoq ilmiy-texnik kengashlarini (mavjud bo‘lmasa) tuzsin, ularning zimmasiga taklif etilayotgan investitsiya loyihalarida sohani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, zamonaviy yuqori texnologiyali, energiyani tejaydigan texnologiyalar va uskunalarni joriy etish vazifalari yuklatilsin;

ixtisoslashtirilgan tarmoq ekspert kengashlarini tuzsin, ularning zimmasiga loyihalash tashkilotlari tomonidan tayyorlangan tender va loyiha oldi hujjatlari, texnologiyalar va uskunalarni tanlash, taklif qilayotgan texnologiyalar va uskunalarni baholashni ko‘rib chiqish vazifalari yuklatilsin;

(3-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PF-5447-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son)

tarmoq ilmiy-texnik kengashlari va ixtisoslashtirilgan tarmoq ekspert kengashlarini yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan tajribali amaliyotchilar, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta‘lim muassasalari, mustaqil kompaniyalar va boshqa tashkilotlarning mutaxassislari bilan to‘ldirsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi, “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika “O‘zinjining” loyiha instituti, xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda:

ikki hafta muddatda — tarmoq ilmiy-texnik kengashlari va ixtisoslashtirilgan tarmoq ekspert kengashlari

tuzish va ular faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom loyihasini kiritсин, unda ushbu kengashlarning vakolatlari hamda ularni tuzish shart ekanligi nazarda tutilayotgan iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati qayd etilsin;

bir oy muddatda — Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini kiritсин, unda loyihalarning buyurtmachi — tashabbuskorlarining quyidagilar uchun mas'uliyatini oshirish nazarda tutiladi:

investitsiya loyihalarining loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqishda ishlab chiqilayotgan topshiriqlarni loyihalashtirish chog'ida zamonaviy texnologiyalar, yuqori texnologiyali va energiya tejaydigan uskunalarni qo'llash;

loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqishga, shu jumladan "to'liq tayyor" loyihalar bo'yicha shartnoma tuziladigan eng malakali injiniring kompaniyalari va/yoki loyihalash tashkilotlarini tanlab olish;

loyihalash tashkilotlari tomonidan tayyorlangan loyiha oldi hujjatlari, ish hujjatlari va ish loyihasi, taklif etilayotgan texnologiyalar va uskunalarni baholash qismini ixtisoslashgan tarmoq ekspert kengashi yoki jalb etilgan mustaqil kompaniya tomonidan sinchiklab ekspertizadan o'tkazishni ta'minlash.

5. Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va tashkilotlari — loyiha tashabbuskorlari va investitsiya loyihalarining buyurtmachilari loyihalash tashkilotlari bilan tuzilayotgan shartnomalarda quyidagilarni nazarda tutishlari shart:

loyihalashtirishda ilg'or hisoblangan yuqori texnologiyali, energiya tejaydigan texnologiyalar va uskunalarni tanlashda ularning moddiy javobgarligi;

loyiha oldi hujjatlarining loyihalash tashkilotlari ilmiy-texnik kengashlarida va buyurtmachilarning tarmoq ilmiy-texnik kengashlarida ko'rib chiqilishi majburiyligi.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-martdagi PF-4996-sonli [Farmoniga](#) asosan o'z kuchini yo'qotgan)

7. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi tugatilayotgan Yangidan quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspertizadan o'tkazib baholash agentligidan bo'shatilayotgan xodimlarni ishga joylashtirishda ko'maklashsin.

8. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangidan quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspertizadan o'tkazib baholash agentligini tashkil etish to'g'risida" 2015-yil 30-sentabrdagi PQ-2413-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yangidan quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspertizadan o'tkazib baholash agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2015-yil 19-noyabrdagi 332-sonli [qarori](#) (O'zbekiston Respublikasi QT , 2015-yil, № 11, 101-modda) o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Adliya vazirligi O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika "O'zinjining" loyihalash instituti hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2017-yil 15-mart,

PQ-2836-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-martdagi PQ-2836-son [qaroriga](#)
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yangidan quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspertizadan o‘tkazib baholash agentligini tugatish komissiyasi

TARKIBI

O.J. Ramatov —O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari — “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi, Komissiya raisi

J.A. —moliya vazirining birinchi o‘rinbosari

Qo‘chqorov

Sh.N. —iqtisodiyot vaziri o‘rinbosari

Fayzullayev

B.M. Nizomov —mehnat vaziri o‘rinbosari

A.A. Usmonov —adliya vaziri o‘rinbosari

S.X. Gafarov —Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari

M.I. Shodiyev —Davarxitektqurilish raisi o‘rinbosari

A.A. Yuldashev —Davlat soliq qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari

N.B. Husanov —Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari

Sh.R. —O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yangidan quriladigan va
Xoshimov rekonstruksiya qilinadigan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspertizadan o‘tkazib baholash agentligi direktori

I.R. Mahkamov — Vazirlar Mahkamasining ATD mudiri, Komissiya kotibi

Izoh: Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Komissiya ishiga tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari va mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 12-son, 185-modda; Qonun hujjatlari

ma'lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son)